



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 29-yanvar

38-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Turoperatorlarning xalqaro turizm yarmarkasi va ko‘rgazmalaridagi pavilon ijarasi xarajatlarini qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 30-dekabrda 918-son qarori ijrosi haqida”gi 33-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Turoperatorlarning xalqaro turizm yarmarkasi va ko‘rgazmalaridagi pavilon ijarasi xarajatlarini qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 30-dekabrda 918-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-yanvardagi 33-6-0-Q/25-sonli qarorijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-yanvardagi 33-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 918-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son Farmoni 1-bandining “g” kichik bandiga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlab faoliyat boshlaganiga 3-yildan ko‘p bo‘lmagan turoperatorlarning xalqaro turizm yarmarka va ko‘rgazmalaridagi pavilon ijarasi xarajatining 50 foizi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – Turizm qo‘mitasi) byudjetdan tashqari Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda –Jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan qoplab berilishi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi Turoperatorlarning xalqaro turizm yarmarkasi va ko‘rgazmalaridagi pavilon ijarasi xarajatlarini qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi e‘tiborga olinsin:

turoperatorlarning xalqaro turizm yarmarkasi va ko‘rgazmalaridagi pavilon ijarasi xarajatlarini qoplab berish uchun ariza berish va uni ko‘rib chiqish tartibi;

xarajatlar qoplab beriladigan tadbirkorlik subyektlariga qo‘yiladigan talablar hamda xarajatlarni qoplab berishni rad etish asoslari;

xarajatlarni qoplab berish uchun Jamg'arma mablag'larini tadbirkorlik subyektlariga o'tkazish tartibi.

3. Axborot xizmati (Sh.KenjayeV), "Mingbuloq" gazetasi (Q.Akbarov) bilan birgalikda faoliyat boshlaganiga 3 yildan ko'p bo'lmagan turoperatorlar uchun xalqaro turizm yarmarkasi va ko'rgazmalaridagi pavilon ijarasi xarajatining 50 foizini Jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplab berish tartibi to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov